

GLOBAL QAYTA SUG‘URTA BOZORI INTEGRATSIYALASHUVI SHAROITIDA O‘ZBEKISTON QAYTA SUG‘URTA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Sultanov Javohir Baxrom o‘g‘li
Bank-moliya akademiyasi magistranti
E-mail: javohirsultanov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada global qayta sug‘urta bozori integratsiyalashuvining asosiy tendensiyalari hamda ushbu jarayonning O‘zbekiston milliy qayta sug‘urta tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil yakunlari va 2026-yil birinchi yarim yilligi bo‘yicha statistik ma’lumotlari asosida xorijiy qayta sug‘urtalovchilarga berilgan va ulardan qabul qilingan sug‘urta mukofotlari dinamikasi qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijasida qayta sug‘urta oqimlaridagi nomutanosiblik, shu bilan birga mahalliy bozorning risk qabul qilish salohiyati ortib borayotgani aniqlangan. Milliy qayta sug‘urta kompaniyasi salohiyatini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni diversifikatsiya qilish, kontragentlar riskini cheklash va raqamli risk ma’lumotlari infratuzilmasini rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: qayta sug‘urta, global integratsiya, xalqaro risk transferi, qayta sug‘urta mukofoti, milliy qayta sug‘urta kompaniyasi, qayta sug‘urta eksporti, kontragent riski, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: The article examines major trends in the integration of the global reinsurance market and their implications for Uzbekistan’s national reinsurance system. Using official statistics published by the National Agency of Perspective Projects for 2025 and the first half of 2026, it compares reinsurance premiums ceded to foreign reinsurers with premiums assumed from them. The analysis identifies an imbalance in cross-border reinsurance flows alongside an improving capacity of the domestic market to assume risks. The article proposes measures to strengthen the national reinsurance company, diversify international cooperation, manage counterparty risk and develop digital risk-data infrastructure.
Keywords: reinsurance, global integration, cross-border risk transfer, reinsurance premiums, national reinsurance company, reinsurance exports, counterparty risk, financial stability.

Абстрактный: В статье исследуются основные тенденции интеграции глобального рынка перестрахования и их влияние на национальную систему перестрахования Узбекистана. На основе статистики Национального агентства перспективных проектов за 2025 год и первое полугодие 2026 года проведён сравнительный анализ премий, переданных иностранным перестраховщикам, и премий, принятых от них. Выявлены дисбаланс трансграничных перестраховочных потоков и одновременно растущий потенциал национального рынка по принятию рисков. Разработаны предложения по укреплению национальной перестраховочной компании, диверсификации международного сотрудничества, ограничению риска контрагентов и развитию цифровой инфраструктуры данных о рисках.
Ключевые слова: перестрахование, глобальная интеграция, международная передача рисков, перестраховочная премия, национальная перестраховочная компания, экспорт перестраховочных услуг, риск контрагента, финансовая устойчивость.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish, savdo, investitsiya va moliyaviy oqimlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib borayotgan sharoitda sug‘urta risklari ham milliy chegaralar doirasidan chiqmoqda. Yirik infratuzilma loyihalari, energetika obyektlari, xalqaro transport yo‘laklari, qishloq xo‘jaligi, tabiiy ofatlar va kiberxavflar bir vaqtning o‘zida katta hajmdagi kapital hamda maxsus anderrayting tajribasini talab qiladi. Bunday sharoitda qayta sug‘urta sug‘urtalovchining risklarini boshqa professional bozor ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash, kapital bosimini kamaytirish va yirik zararlar yuz berganda to‘lov qobiliyatini saqlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Global qayta sug‘urta bozorining miqyosi ushbu mexanizmning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasining (IAIS) 2025-yilgi hisobotida 2024-yil yakunida kuzatilgan global yalpi qayta sug‘urta mukofotlari qariyb 1,75 trln AQSH dollariga, sof mukofotlar esa hisobot qamrovidagi bozorlar kesimida 1,2 trln dollardan ortiqqa yetgani qayd etilgan. Qayta sug‘urtaning sof global sug‘urta mukofotlaridagi ulushi taxminan 22 foizni tashkil etgan. Demak, xalqaro risk taqsimoti milliy sug‘urta bozorlarining moliyaviy barqarorligi va investitsion faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omildir.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham so‘nggi yillarda mukofotlar, kapital va qayta sug‘urta operatsiyalari hajmi ortmoqda. Biroq xalqaro integratsiyani faqat xorijga berilgan qayta sug‘urta mukofotlari ko‘payishi bilan baholash to‘g‘ri emas. Uning samaradorligi mamlakatga qayta sug‘urta biznesini jalb qilish, risklarni turli hudud va kontragentlar o‘rtasida taqsimlash, shartnomalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida undirish, mahalliy anderrayting salohiyatini oshirish va milliy kapitalni iqtisodiyot doirasida saqlab qolish bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Qayta sug‘urta tizimining rivojlanishi sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, risklarni diversifikatsiya qilish va xalqaro sug‘urta munosabatlariga integratsiyalashuv jarayonlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni sug‘urta faoliyatini tashkil etish, sug‘urtalovchilarning huquq va majburiyatlari, sug‘urta bozorini tartibga solish hamda nazorat qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu qonunchilik bazasi qayta sug‘urtalash munosabatlarini rivojlantirish, sug‘urta tashkilotlarining risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish va bozorning institutsional barqarorligini mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida qayta sug‘urta tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari Prezidentning 2025-yil 23-maydagi PQ-191-son qarorida o‘z aksini topgan. Mazkur qaror mamlakatda qayta sug‘urta faoliyatini takomillashtirish, sug‘urta risklarini samarali taqsimlash, mahalliy qayta sug‘urta salohiyatini oshirish va xalqaro qayta sug‘urta

bozori bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlarning muhim huquqiy asosidir. Qaror doirasida belgilangan chora-tadbirlar milliy qayta sug‘urta tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda xorijiy qayta sug‘urta tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [2].

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini baholashda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan e’lon qilinadigan statistik ma’lumotlar muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta tashkilotlari faoliyati, bozor segmentlari va sug‘urta xizmatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar qayta sug‘urta operatsiyalarining milliy sug‘urta bozoridagi o‘rnini baholash, risklarning konsentratsiyasi va sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Shuningdek, 2026-yil II chorak yakunlari bo‘yicha sug‘urta bozorining statistik ko‘rsatkichlari sug‘urta tizimidagi joriy tendensiyalarni, bozor hajmining o‘zgarishini va institutsional rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur statistik ma’lumotlardan foydalanish qayta sug‘urta tizimining rivojlanish darajasini mavjud bozor ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda baholash, milliy sug‘urta kompaniyalarining risklarni qayta taqsimlash imkoniyatlarini tahlil qilish hamda xalqaro qayta sug‘urta bozoriga integratsiyalashuv istiqbollarini aniqlashga yordam beradi [4].

Xalqaro miqyosda qayta sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishda International Association of Insurance Supervisors (IAIS) tomonidan tayyorlangan Global Insurance Market Report 2025 muhim manba hisoblanadi. Mazkur hisobot global sug‘urta bozorining moliyaviy holati, risklar dinamikasi, kapital yetarliligi, investitsiya faoliyati va sug‘urta sektorining barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarni yoritadi. Hisobotdagi tahliliy yondashuvlar global sug‘urta bozoridagi o‘zgarishlarning milliy sug‘urta tizimlariga ta’sirini baholash, qayta sug‘urtalash imkoniyatlaridan foydalanish hamda O‘zbekiston qayta sug‘urta tizimini xalqaro tendensiyalar asosida rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun metodologik asos yaratadi [5].

IAIS tomonidan ishlab chiqilgan Insurance Core Principles (ICP) va ComFrame xalqaro sug‘urta nazorati standartlari sug‘urta tashkilotlari faoliyatini prudensial tartibga solish, risklarni boshqarish, kapital barqarorligini ta’minlash va xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi sug‘urta guruhlarini nazorat qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Xususan, ICP 13 tamoyili qayta sug‘urtalash va boshqa risklarni transfer qilish mexanizmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, sug‘urtalovchilarning risklarni qayta sug‘urtalash orqali kamaytirish jarayonida qayta sug‘urtalovchilarning ishonchliligi, risklarni transfer qilish strategiyasi va qayta sug‘urta dasturlarini samarali boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu xalqaro standartlar O‘zbekiston qayta sug‘urta tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish va uning global qayta sug‘urta bozori bilan uyg‘unligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [6].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar doirasida Xalmuxamедова З. tomonidan sug‘urta tashkilotining to‘lov qobiliyatini ta’minlashda qayta sug‘urta dasturlarini optimallashtirish masalalari o‘rganilgan. Muallif qayta sug‘urtalashdan foydalanishni sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, risklarni taqsimlash va to‘lov qobiliyatini mustahkamlash bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Mazkur tadqiqot qayta sug‘urta dasturlarini oqilona shakllantirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirish nuqtayi nazaridan ilmiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qayta sug‘urta dasturlarini optimallashtirish masalalarini global qayta sug‘urta bozori integratsiyasi, xalqaro qayta sug‘urtalovchilar bilan hamkorlik va milliy qayta sug‘urta salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi [7].

Umuman olganda, o‘rganilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro standartlar, statistik manbalar va ilmiy tadqiqotlar qayta sug‘urta tizimini rivojlantirishda moliyaviy barqarorlik, risklarni diversifikatsiya qilish, prudensial nazorat, xalqaro hamkorlik va institutsional islohotlarning muhimligini ko‘rsatadi. Biroq, mavjud manbalarni umumlashtirish asosida global qayta sug‘urta bozori integratsiyalashuvi sharoitida O‘zbekiston qayta sug‘urta tizimining rivojlanish imkoniyatlari, xalqaro qayta sug‘urta operatsiyalaridagi ishtiroki, milliy risklarni saqlab qolish salohiyati va xorijiy qayta sug‘urta kapitalidan foydalanish samaradorligini kompleks baholash zarurati yuzaga keladi. Bu holat mazkur maqolaning ilmiy yo‘nalishini belgilab, milliy qayta sug‘urta tizimini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik va tarkibiy tahlil, nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil yakunlari hamda 2026-yil II chorak yakunlari bo‘yicha ochiq statistik hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta faoliyatiga oid qonunchiligi va xalqaro tashkilotlar hisobotlari tashkil etdi [1–6].

Xalqaro qayta sug‘urta oqimlarini baholash uchun qabul qilish koeffitsiyenti hisoblandi:

$$Kq = Qq / Qb \times 100\%,$$

bu yerda: Qq — xorijiy sug‘urta tashkilotlaridan qabul qilingan qayta sug‘urta mukofotlari; Qb — xorijiy sug‘urta tashkilotlariga qayta sug‘urtalash uchun berilgan mukofotlar. Ko‘rsatkich 100 foizdan past bo‘lsa, qabul qilingan mukofotlar berilgan mukofotlardan kamligini anglatadi. Shuningdek, berilgan va qabul qilingan mukofotlar o‘rtasidagi oddiy farq qayta sug‘urta mukofotlari oqimining shartli nomutanosibligini ifodalash uchun qo‘llanildi. Mazkur farq to‘lovlar, komissiyalar va shartnoma bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblarni qamrab oluvchi to‘liq sof valyuta oqimi sifatida talqin qilinmaydi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).

Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2025-yil yakunida jami sug‘urta mukofotlari 13,46 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 37,8 foizga oshgan. Sug‘urta to‘lovlari hajmi 2,99 trln so‘mga yetib, 35,4 foizlik o‘sish qayd etilgan [3]. Bozorning kengayishi sug‘urtalovchilar zimmasiga olinayotgan risklar hajmini oshiradi. Shu sababli qayta sug‘urta infratuzilmasining rivojlanishi faqat alohida kompaniyalar manfaatlari emas, balki butun moliya tizimining barqarorligi uchun ham muhimdir.

2025-yil yakunlari bo‘yicha xorijiy sug‘urta tashkilotlari bilan qayta sug‘urta operatsiyalarini tahlil qilish quyidagi holatni ko‘rsatadi: umumiy sug‘urta sohasida qayta sug‘urtalashga berilgan mukofotlar 3 922,1 mlrd so‘mga yetgan va yalpi mukofotlarning 30 foiziga teng bo‘lgan. Xorijiy tashkilotlardan qayta sug‘urtaga qabul qilingan mukofotlar 2 099,5 mlrd so‘mni yoki yalpi mukofotlarning 16 foizini tashkil etgan. 2024-yilga nisbatan mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 64,6 va 50,1 foizga o‘sgan [3].

1-jadval.

Umumiy sug‘urta sohasida xorijiy tashkilotlar bilan qayta sug‘urta mukofotlari dinamikasi [3]

Ko‘rsatkich	2024-yil (mlrd so‘m)	2025-yil (mlrd so‘m)	O‘zgarish	Yalpi mukofotdagi ulush (2025)
Xorijga qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar	2 382,6	3 922,1	+64,6%	30%
Xorijdan qayta sug‘urtaga qabul qilingan mukofotlar	1 398,7	2 099,5	+50,1%	16%
Berilgan va qabul qilingan mukofotlar farqi	983,9	1 822,6	—	—

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yilda qayta sug‘urtaga qabul qilingan mukofotlarning berilgan mukofotlarga nisbati 53,5 foizni tashkil etgan. Ya’ni xorijiy qayta sug‘urtalovchilarga berilgan har 100 so‘m mukofotga nisbatan xorijdan qariyb 53,5 so‘m mukofot qabul qilingan. Bu ko‘rsatkich milliy sug‘urta tashkilotlarining xalqaro risk taqsimotida ishtiroki ortayotgan bo‘lsa-da, tashqi qayta sug‘urta xizmatlarini xarid qilish hajmi yuqoriligicha qolayotganini anglatadi. Berilgan va qabul qilingan mukofotlar o‘rtasidagi farq 1,82 trln so‘mni tashkil qilgan.

2026-yilning birinchi yarim yilligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar esa ijobiy o‘zgarishni namoyon etadi. 2025-yilning shu davrida xorijga berilgan qayta sug‘urta mukofotlari 1 335,5 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilning shu davrida 1 332,7 mlrd so‘mni tashkil etib, deyarli o‘zgarmagan (-0,2%). Ayni vaqtda xorijdan qabul qilingan qayta sug‘urta mukofotlari 887,8 mlrd so‘mdan 1 152,3 mlrd so‘mga oshgan (+29,8%) [4].

2-jadval

Xorijiy qayta sug‘urta tashkilotlari bilan operatsiyalarning 2025–2026-yillar birinchi yarim yilligidagi qiyosiy tahlili[1]

Ko‘rsatkich	2025-yil I yarim yillik (mlrd so‘m)	2026-yil I yarim yillik (mlrd so‘m)	O‘zgarish
Xorijga berilgan mukofotlar	1 335,5	1 332,7	-0,2%
Xorijdan qabul qilingan mukofotlar	887,8	1 152,3	+29,8%
Qabul qilish koeffitsiyenti	66,5%	86,5%	+20,0 foiz band
Mukofotlar o‘rtasidagi farq	447,7	180,4	-59,7%

Hisob-kitoblar qabul qilish koeffitsiyentining 66,5 foizdan 86,5 foizga ko‘tarilganini, mukofotlar o‘rtasidagi farq esa 447,7 mlrd so‘mdan 180,4 mlrd so‘mga qisqarganini ko‘rsatadi. Mazkur natija 2026-yilning birinchi yarim yilligida milliy sug‘urta tashkilotlarining xorijiy risklarni qabul qilish faolligi oshganidan dalolat beradi. Biroq yarim yillik ko‘rsatkichlarni to‘liq yillik natija bilan bevosita qiyoslash mumkin emas; shu bois jadvalda faqat bir xil olti oylik davrlar solishtirildi.

Hayotni sug‘urta qilish sohasida ham xorijiy qayta sug‘urta operatsiyalari faollashgan. 2025-yil yakunida xorijga berilgan mukofotlar 67,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yildagi 15,7 mlrd so‘mga nisbatan 327,8 foizga oshgan; ularning yalpi mukofotlardagi ulushi 5 foizdan 11 foizga ko‘tarilgan. Xorijdan qabul qilingan mukofotlar esa 2025-yilda 31,2 mlrd so‘m yoki yalpi mukofotlarning 5 foizi miqdorida qayd etilgan [3]. Bu segmentda hajmlar umumiy sug‘urta sohasiga nisbatan kichik bo‘lsa-da, uzoq muddatli majburiyatlar va aktuar hisob-kitoblar bo‘yicha xalqaro tajribani jalb qilish imkoniyati mavjud.

Global integratsiyalashuv sharoitida milliy tizimni rivojlantirish yo‘nalishlari. Birinchidan, milliy qayta sug‘urta tashkilotining kapital va anderrayting salohiyatini mustahkamlash lozim. PQ-191-son qarorda “O‘zbekiston qayta sug‘urta kompaniyasi”ni tashkil etish, uning ustav kapitalini kamida 300 mlrd so‘m miqdorida shakllantirish hamda davlat va xususiy investorlar ishtirokini 50/50 nisbatda belgilash nazarda tutilgan [2]. Bunday tuzilma milliy bozor uchun yirik risklarni qabul qilish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Biroq kapitalning o‘zi yetarli emas: kompaniyada xalqaro anderrayting, aktuar modellashtirish, zararlarni tartibga solish, investitsiya va kontragent risklarini boshqarish bo‘yicha malakali jamoa bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, qayta sug‘urta operatsiyalarini faqat ichki bozorni himoya qilish vositasi sifatida emas, balki eksportga yo‘naltirilgan moliyaviy xizmat sifatida rivojlantirish kerak. PQ-191-son qarorda milliy qayta sug‘urta bozori hajmini 4 trln so‘mga yetkazish, qayta sug‘urta xizmatlari eksportini kamida 30 foizga oshirish va sohaga jalb qilinadigan investitsiyalarni 150 mlrd so‘mgacha ko‘paytirish maqsadlari belgilangan [2]. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari sug‘urtalovchilari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar, mintaqaviy qayta sug‘urta dasturlari hamda xalqaro brokerlar bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ichki risklarni saqlab qolish va xalqaro bozordan foydalanish o‘rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanat ta’minlanishi kerak. PQ-191-son qarorga muvofiq, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab xorijiy qayta sug‘urta tashkilotlariga risklarni berishdan oldin takliflarni vakolatli organ ta’sischiligida tashkil etilgan qayta sug‘urta tashkilotlariga, keyin esa O‘zbekiston hududida qayta sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega tashkilotlarga yuborish tartibi joriy etilgan; qarorda obligator qayta sug‘urtaga oid istisno ham ko‘rsatilgan [2]. Mazkur tartib milliy bozor ichida risk va mukofotlarni saqlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, taklifni ko‘rib chiqish jarayonida narx, qoplama hajmi, reyting, to‘lov muddati va shartnoma shartlari bo‘yicha raqobatbardoshlik saqlanishi lozim.

To‘rtinchidan, xorijiy qayta sug‘urtalovchilar bilan ishlashda kontragent riskini baholashning yagona tizimini joriy etish zarur. Bunda xalqaro reyting agentliklari baholari bilan bir qatorda qayta sug‘urtalovchining kapital yetarliligi, mamlakat riski, zararlarni qoplash tarixi, retrotsessiya darajasi, likvidligi va valyuta tavakkalchiligi hisobga olinishi lozim. Yirik risklar bir yoki ikki kontragentga jamlanib qolmasligi, shartnomalarda garov, depozit yoki boshqa ta’minot mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilishi kerak. IAISning 13-tamoyili transchegaraviy operatsiyalarda qayta sug‘urtalovchi yurisdiksiyasidagi nazorat amaliyotini hisobga olish va nazorat organlari o‘rtasida axborot almashinuvini rivojlantirishni tavsiya etadi [6].

Beshinchidan, qayta sug‘urta portfelini risk xususiyatiga qarab qatlamlash maqsadga muvofiq. Barqaror va takrorlanuvchi sug‘urta portfellari uchun proporsional shartnomalar, yirik va kam uchraydigan zararlar uchun esa excess-of-loss kabi noproporsional himoya shakllari qo‘llanishi mumkin. Energetika, transport, qurilish-montaj, qishloq xo‘jaligi va tabiiy ofatlar bilan bog‘liq yirik risklar bo‘yicha milliy sug‘urtalovchilar ishtirokidagi birgalikdagi risk hovuzlarini shakllantirish, ularning yuqori qatlamini xalqaro qayta sug‘urta bozori orqali himoyalash taklif etiladi. Bunday model bitta kompaniyaning kapitaliga tushadigan bosimni pasaytiradi va riskni diversifikatsiya qiladi.

Oltinchidan, raqamli ma’lumotlar infratuzilmasini takomillashtirish lozim. Sug‘urta obyektlarining joylashuvi, qiymati, ehtimoliy zarar ssenariylari, oldingi da’volar, tabiiy ofatlar va sanoat xavflari bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasi qayta sug‘urta narxini aniqroq hisoblash imkonini beradi. Geografik axborot tizimlari, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va katastrofik risk modellaridan foydalanish, shartnomalar va da’volarni elektron almashish xalqaro qayta sug‘urtalovchilar bilan muzokaralarda milliy kompaniyalarning ishonchliligini oshiradi.

Yettinchidan, milliy tizim samaradorligini faqat qayta sug‘urta mukofotlari hajmi orqali baholamaslik kerak. Istiqbolli monitoring panelida kamida quyidagi ko‘rsatkichlar aks etishi lozim: qayta sug‘urtaga berish ulushi; qayta sug‘urtaga qabul qilish ulushi; qabul qilingan va berilgan mukofotlar nisbati; mahalliy qayta sug‘urtalovchilarda saqlangan risk ulushi; eng yirik kontragentlar konsentratsiyasi; qayta sug‘urta qoplamalari bo‘yicha undirilgan mablag‘larning o‘rtacha muddati; eksport geografiyasi; kapital va to‘lovga qobiliyatlilik ko‘rsatkichlari. Bu ko‘rsatkichlar bozorning hajmi bilan birga integratsiya sifatini ham baholashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston qayta sug‘urta tizimi uchun global integratsiyalashuv bir vaqtning o‘zida imkoniyat va yangi tavakkalchiliklarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. 2025-yilda umumiy sug‘urta sohasida xorijiy qayta sug‘urtalovchilarga berilgan mukofotlar 3,92 trln so‘mga, xorijdan qabul qilingan mukofotlar 2,10 trln so‘mga teng bo‘lib, qabul qilish koeffitsiyenti 53,5 foizni tashkil etdi. 2026-yil birinchi yarim yilligida ushbu ko‘rsatkich 86,5 foizga ko‘tarilgan, mukofotlar o‘rtasidagi farq esa bir yil oldingi mos davrga nisbatan 59,7 foizga qisqargan. Bu milliy sug‘urta tashkilotlarining xalqaro risklarni qabul qilish salohiyatida ijobiy siljish borligini ko‘rsatadi [3; 4].

[1] Muallif ishlanmasi

Shu bilan birga, xalqaro integratsiya milliy bozorning tashqi qayta sug‘urta himoyasiga bo‘lgan ehtiyojini inkor etmaydi. Aksincha, asosiy vazifa risklarning iqtisodiy jihatdan samarali qismini ichki bozorda saqlash, yuqori va favqulodda qatlamlarni esa moliyaviy jihatdan barqaror xalqaro qayta sug‘urtalovchilar o‘rtasida taqsimlashdan iborat. Buning uchun quyidagi takliflar muhim deb hisoblanadi:

– milliy qayta sug‘urta kompaniyasining kapitali bilan bir qatorda anderrayting, aktuar tahlil va zararlarni tartibga solish salohiyatini rivojlantirish;

– Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qayta sug‘urta xizmatlari eksporti va mintaqaviy risk hovuzlarini shakllantirish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish;

– xorijiy kontragentlarni reyting, kapital, mamlakat va konsentratsiya risklari bo‘yicha baholash, zarur holatlarda garov va depozit mexanizmlarini qo‘llash;

– yirik infratuzilma, energetika, qurilish va tabiiy ofat risklari bo‘yicha ko‘p qatlamli qayta sug‘urta dasturlarini joriy etish;

– qayta sug‘urta bozorining hajmi bilan birga eksport, mahalliy retensiya, kontragentlar diversifikatsiyasi va undirilgan qayta sug‘urta qoplamalarini aks ettiruvchi ochiq statistik monitoringni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, O‘zbekiston qayta sug‘urta tizimining raqobatbardoshligi ichki risklarni asossiz ravishda mamlakatda ushlab qolish bilan emas, balki ularni to‘g‘ri baholash, tegishli qatlamlarga ajratish, moliyaviy barqaror kontragentlar bilan taqsimlash va milliy tashkilotlarning xalqaro bozorda risk qabul qiluvchi sifatida faol ishtirok etishi orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati: (Список использованной литературы / References)

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (2026-yil 25-iyul holatidagi tahrir). https://lex.uz/uz/acts/-5739117

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-191-son “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-7540329

3. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2025-yil yakunlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2026. https://napp.uz/oz/news/statistics-and-analysis-for-im

4. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2026-yil II chorak yakunlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2026. https://napp.uz/storage/files/shares/opendata/2026/2Q/Страх%20отчет%20II%20чорак%202026%20йил%20uz.pdf

5. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Global Insurance Market Report 2025. December 2025. https://www.iais.org/uploads/2025/12/Global-Insurance-Market-Report-2025.pdf

6. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups. December 2024, ICP 13. https://www.iais.org/uploads/2024/12/IAIS-ICPs-and-ComFrame-adopted-in-December-2024.pdf

7. Xalmuxamedova, Z. Sug‘urta tashkilotining to‘lov qobiliyatini ta’minlashda qayta sug‘urta dasturlarini optimallashtirish. // Moliya va bank ishi. 2026. Tom 12, № 4. B. 135–142. https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/716